

RAQAMLI JAMIYATDA DINIY ERKINLIK VA AXLOQIY TANLOV MASALASI

Egamova Dilfuza Sharifovna,

Andijon davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail. dilfuzaegamova74@gmail.com.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida diniy erkinlikning yangi shakllari, uning virtual makonda namoyon bo'lishi hamda axloqiy tanlov bilan o'zaro bog'liqligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli muhitning shaxs e'tiqodi, qadriyatlar va axloqiy qarorlariga ta'siri ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli jamiyat, diniy erkinlik, axloqiy tanlov, virtual makon, e'tiqod, qadriyatlar, ijtimoiy falsafa, raqamli madaniyat, axloqiy ong, globallashev.*

Аннотация. *В данной статье анализируются новые формы религиозной свободы в цифровом обществе, их проявление в виртуальном пространстве и связь с моральным выбором с социально-философской точки зрения. Также раскрывается влияние цифровой среды на индивидуальные убеждения, ценности и моральные решения.*

Ключевые слова: *цифровое общество, религиозная свобода, моральный выбор, виртуальное пространство, убеждения, ценности, социальная философия, цифровая культура, моральное сознание, глобализация.*

Abstract. *This article analyzes the new forms of religious freedom in the digital society, its manifestation in the virtual space and its relationship with moral choice from a socio-philosophical perspective. It also reveals the impact of the digital environment on individual beliefs, values, and moral decisions.*

Keywords: *digital society, religious freedom, moral choice, virtual space, beliefs, values, social philosophy, digital culture, moral consciousness, globalization.*

Kirish. Raqamli jamiyatning rivojlanib borishi, jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, har bir formatsiya o'zining ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy munosabatlari va bilimga munosabati bilan ajralib turadi. “Qadimgi ibtidoiy jamiyatdan tortib to postindustrial jamiyatgacha insoniyat o'z ehtiyojlarini qondirish, bilim olish, axborot uzatish va muloqot qilish usullarini doimiy tarzda takomillashtirib bordi. Bu jarayonda texnologiyalar muhim rol o'ynagan”[1.125]. Ayniqsa, sanoat inqilobi va undan keyingi axborot inqilobi ijtimoiy tuzilmalarning tubdan o'zgarishiga olib keldi. Raqamli jamiyat aynan shu tarixiy jarayonlarning mantiqiy davomidir va u boshqa jamiyat formatsiyalari bilan dialektik bog'liq holda rivojlangan.

1. Ibtidoiy jamiyat va og'zaki axborot tizimi. Eng qadimgi jamiyat – ibtidoiy formatsiyasida axborot uzatish asosan og'zaki shaklda amalga oshirilgan. “Insonlar bilim va tajribani og'zaki an'analar, miflar, urf-odatlar orqali avloddan avlodga uzatganlar. Axborot vositalari bo'lmaganligi sababli bilim va ongni saqlash faqat eslab qolish orqali amalga oshgan”[2.213]. Bu bosqichda “ijtimoiy ong” va “axborot tizimi” tushunchalari hali sodda va bevosita shakllangan edi. Axborot almashinuvi vaqt, makon va inson soni bilan chegaralangan bo'lgan.

2. Qadimgi sivilizatsiyalar va yozuv orqali shakllangan axborot madaniyati. Yozuvning ixtiro qilinishi bilan insoniyat yangi ijtimoiy bosqichga ko‘tarildi. Bu bosqichda axborotni saqlash va tarqatish uchun yozuv vositasi yaratilgan bo‘lib, bu davlat boshqaruvi, diniy marosimlar, qonunlar va ta‘lim tizimining rivojlanishiga olib keldi. Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston kabi qadimgi sivilizatsiyalarda axborot ancha murakkab tizim asosida jamiyat hayotiga ta‘sir eta boshladi. Biroq, bu axborot tizimlari ham markazlashgan, elitalar qo‘lida bo‘lgan va omma uchun cheklangan edi.

3. Feodal jamiyat va diniy-axloqiy axborotning ustunligi davri hisoblanib, “feodal jamiyatda axborot ustuvorligi asosan diniy institutlar (cherkov, madrasalar) qo‘lida bo‘lgan. Axborot va bilim diniy-ma‘naviy qadriyatlar asosida berilgan va u ko‘pincha yagona haqiqat sifatida talqin qilingan”[3]. Bu bosqichda axborotdan foydalana olish imtiyozi ma‘lum ijtimoiy qatlamlarga tegishli edi. Matbaa ixtiro qilinmagunicha axborot tarqalishi sust, markazlashgan va nazorat ostida bo‘lgan.

4. Kapitalistik jamiyat va sanoat axborotining shakllanish davri. Sanoat inqilobi (XVIII–XIX asrlar) axborot bilan ishlashda yangi texnologik bosqichni boshlab berdi. “Matbaa, telegraf, telefon, radio, gazeta, jurnal kabi ommaviy axborot vositalarining paydo bo‘lishi axborot erkinligini ta‘minlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Bu bosqichda axborot iste‘moli tobora ommaviylashdi. Ta‘lim va savodxonlik ommalashgan sari ijtimoiy ong va axborotga nisbatan ongli munosabat shakllandi”[4]. Bu esa demokratiya, huquqiy ong, fuqarolik jamiyati tushunchalarining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Ammo axborot oqimi hali ham bir yoqlama, ya‘ni markazdan ommaga yo‘naltirilgan edi.

5. Axborot jamiyati – tranzitsion bosqichi bo‘lib, XX asrning ikkinchi yarmida axborot texnologiyalarining tez sur‘atda rivojlanishi natijasida “axborot jamiyati” (information society) tushunchasi shakllandi. Bu bosqichda axborot – yangi ijtimoiy resurs sifatida e‘tirof etildi. D. Bell, F. Uebster, M. Kastels kabi tadqiqotchilar “axborot ishlab chiqarish, uni boshqarish, tarqatish va iste‘mol qilish jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanganini ta‘kidladilar”[5]. Biroq bu bosqichda axborot ishlab chiqarish vositalari hali omma qo‘lida emas edi, balki korporatsiyalar va institutlar tasarrufida bo‘lib qolgan.

6. XXI asrga kelib, axborot texnologiyalari raqamli shaklga o‘tdi. internet, mobil aloqa, sun‘iy intellekt, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali har bir shaxs axborot yaratuvchisi, iste‘molchisi va tarqatuvchisiga aylandi. “Bu jamiyat formasi “raqamli jamiyat” deb ataladi. Unda harakat faqat ishlab chiqarish bilan emas, balki axborotni ishlab chiqarish, kodlash, baholash, tarqatish va nazorat qilish bilan belgilanadi”[6]. Har bir inson virtual makonda o‘z identikligini yaratadi, raqamli madaniyat, raqamli iqtisodiyot va raqamli ijtimoiylashuv shakllanadi.

Muhokama va natijalar. Raqamli jamiyat – bu bir vaqtning o‘zida ham global, ham lokal hodisa. Bir tomondan, u millatlar, tillar va geografik to‘siqlarni yo‘q qiladi. Ikkinchi tomondan, u axborot notengligini kuchaytiradi, axborot ekspluatatsiyasi va raqamli mustamlakachilik kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu jihatdan raqamli jamiyatda “erkinlik” va “nazorat”, “demokratiya” va “manipulyatsiya” o‘rtasidagi murakkab dialektik qarama-qarshiliklarda mavjud. Raqamli jamiyat – bu jamiyat formatsiyalarining rivojlanish tarixida yangi bosqich bo‘lib, “unda inson, texnologiya va ong o‘rtasidagi munosabatlar yangi shaklda ifodalanadi. U texnologik taraqqiyot mahsuli bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy ong, axloq, madaniyat, mehnat, muloqot, siyosiy faollik kabi sohalarida chuqur o‘zgarishlarga olib keldi”[7]. Shu bois raqamli jamiyatni tushunish nafaqat texnikaviy, balki ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida qaralishi zarurdir.

Fikrimizcha, raqamli jamiyat (digital society) – bu inson faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, internet, mobil aloqa, axborot tizimlari va raqamli infratuzilmalarning keng miqyosda tatbiq etilishi natijasida shakllanayotgan yangi ijtimoiy-tarixiy holatdir. Bu tushuncha nafaqat texnologik taraqqiyotning natijasi, balki ijtimoiy ong, qadriyatlar, tafakkur shakllari, mehnat va muloqot uslublarining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘layotgan murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Raqamli jamiyatning mohiyatini chuqur tushunish uchun uni faqat texnologik yondashuvda emas, balki falsafiy, gumanitar, madaniy va ijtimoiy kontekstlarda ham tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Raqamli jamiyatda din erkinligi – bu shaxsning istalgan dinni tanlash va unga amal qilish huquqi. “Bu shaxsning o‘z e‘tiqodlariga eng mos keladigan diniy va axloqiy imperativlarni erkin tanlashini nazarda tutadi. Diniy e‘tiqodga ega bo‘lish ma‘lum bir mafkuraviy va axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lishni anglatadi. Dinga amal qilish huquqi har qanday diniy ta‘limotga amal qilish uchun kafolatlangan imkoniyatni anglatadi”[8]. Tanlangan diniy imperativlarga muvofiq erkin harakat qilish huquqini tan olish har qanday diniy uyushma a‘zosi bo‘lish yoki yangilarini tuzish erkinligini anglatadi. Vijdon erkinligi va diniy e‘tiqod erkinligi bir-biri bilan umumiy va o‘ziga xos jihatlar sifatida bog‘liq. Bu ikki erkinlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiqotchi olim S.A.Avakyan tomonidan quyidagicha tasvirlangan. Uning ta‘kidlashicha, “vijdon erkinligi ikki jihatga ega. biri insonning axloqiy qarashlari erkinligi, ikkinchisi esa shaxsning idealni tanlash va unga sig‘inishning ichki (ma‘naviy) qobiliyatidir. Bunday idealning mavjudligiga ishonish imkoniyati, g‘ayrioddiy (ilohiy) mavjudot shaklida izohlangan”[9]. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi mulohazalar vijdon erkinligi va din erkinligining yagona huquqiy institutning tarkibiy qismlari sifatida qonuniy talqinini tan olish foydasiga juda ishonchli argumentdir.

“Raqamlashtirish nafaqat yashash muhitini o‘zgartiradi, balki insonning dunyoga ongli munosabati holatini, shu jumladan mulohaza qilish mahoratini ham

o‘zgartiradi”[10]. Bu insoniyat tsivilizatsiya holatida burilish nuqtasida ekanligi haqidagi xulosa chiqarishga chorladi. Yaqin o‘tmishda inson nazariy tafakkurida madaniy holat inqiroz holati sifatida tavsiflovchi doimiy an‘ana paydo bo‘ldi. Falsafiy nuqtai nazardan, bunday tendentsiyalarning asosi ma‘lum darajada sub‘ektning ijtimoiy mavqeidagi sezilarli o‘zgarishga olib keldi. Darhaqiqat, “ijtimoiy muhitdagi axborot va kommunikatsiya oqimlarining kuchayishi tufayli zamonaviy insonlar tobora ko‘proq o‘z mavjudligidan ajralish holatiga tushib qoldi. Ushbu holatning muhim xususiyatlaridan biri iqtisodiyotning raqamlashtirilishi bo‘lib, u iqtisodiy bazaning tuzilishini butunlay o‘zgartirmoqda”[11]. Natijada raqamli texnologiyalarning o‘ziga xos ijtimoiy rollarni egallash orqali ijtimoiy rivojlanish omillariga aylandi.

Raqamli jamiyatdan oldin insonning ijtimoiy-madaniy muhiti nisbatan barqaror va o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, odamlar, guruhlar, madaniyatlar va dinlar bilan o‘zaro ta‘sir orqali shakllandi. O‘ziga xoslikni qayta ko‘rib chiqish va mustahkamlash jarayoni diniy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy va tarixiy o‘zgarishlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. “Bugungi raqamli dunyoda raqamlashtirish “ko‘p o‘ziga xoslik”ning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda”[12]. Ye.E.Semenovning fikriga ko‘ra, bunday o‘ziga xosliklar “turli kontekstlarda o‘zgaradi yoki qayta paydo bo‘ladi. Turli jamoalar o‘rtasidagi strukturaviy aloqalar raqamli dunyoda o‘ziga xoslikni shakllantirishga ta‘sir qiluvchi muhim elementga aylanib bormoqda. Yangi marosimlar va mahalliy qarama-qarshiliklar bu jarayonni ko‘rsatadi. Raqamli muhitda global madaniyat kontekstida milliy, etnik va diniy o‘ziga xosliklarning shakllanishi axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining ta‘siri bilan sezilarli darajada bog‘liq”[13].

Xulosa. Raqamli muhitda diniy erkinlik – bu insonning o‘z diniy e‘tiqodini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali erkin tanlash, ifoda etish, o‘rganish va amalda qo‘llash imkoniyatlarini o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy-falsafiy va huquqiy hodisadir. Mazkur tushuncha an‘anaviy diniy erkinlikdan farqli ravishda, real makon bilan cheklanmaydi, balki virtual makonda ham faol namoyon bo‘ladi. Aniqroq aytganda, raqamli muhitda diniy erkinlik quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi. Birinchidan, bu e‘tiqodni erkin ifoda etish huquqining kengayishidir. Shaxs internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalar orqali o‘z diniy qarashlarini ochiq yoki anonim tarzda bayon qilishi, diniy qadriyatlarini targ‘ib qilishi yoki muhokama qilishidir. Bu jarayon diniy erkinlikni global darajaga olib chiqadi.

Ikkinchidan, diniy bilim olish erkinligining raqamli shaklidir. Inson istalgan joyda va istalgan vaqtda diniy manbalarni o‘rganish, onlayn ma‘ruzalar tinglash, diniy savollarga javob topish imkoniga ega bo‘ladi. Natijada, diniy erkinlik faqat e‘tiqod qilish bilan cheklanmay, ongli va tanqidiy o‘rganish jarayoniga ham aylanadi.

Uchinchidan, bu virtual diniy hamjamiyatlarda ishtirok etish erkinligidir. Raqamli muhitda insonlar umumiy e‘tiqod asosida birlashib, o‘zaro muloqot qiladi, tajriba

almashadi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi. Bu esa diniy erkinlikning ijtimoiy jihatini mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, bu diniy tajribaning individuallashuvi va moslashuvchanligidir. Raqamli texnologiyalar yordamida shaxs o‘z ehtiyojlariga mos diniy kontentni tanlaydi, shaxsiy e‘tiqodiy yo‘lini mustaqil shakllantiradi. Bu esa diniy erkinlikni yanada subyektiv va ichki tajribaga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, raqamli muhitda diniy erkinlik mutlaq erkinlik emas, balki axloqiy mas’uliyat, huquqiy me’yorlar va axborot xavfsizligi talablari bilan uyg‘un holda mavjud bo‘ladi. Chunki bu makonda noto‘g‘ri axborot, manipulyatsiya yoki ekstremistik g‘oyalar ham tarqalish xavfi ham mavjud. Raqamli muhitda diniy erkinlik – bu an’anaviy diniy erkinlikning yangi bosqichi bo‘lib, u global, interaktiv, moslashuvchan va individual xarakterga ega bo‘lgan, ammo ayni paytda mas’uliyat bilan muvozanatlashgan erkinlik shaklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Робертс Эллис. Происхождение человека. Эволюция / Пер. с англ. И. В. Павловой, О. В. Сергеевой. – М.: ООО «АСТ», 2012. – С.125.
2. Алексеев В. П. Становление человечества. – М.: Политиздат, 1984. –С.213.
3. Осипова Н.Г., Елишев С.О. Религия. социологический анализ. Монография. – М.: Перспектива, 2022. – С.222-248.
4. Засурский Я.Н. История печати. антология. – М.: “Аспект Пресс”, 2008. – Т. 3. –С.145-148.
5. Бронников И.А. Современные тенденции и перспективы информационного общества. // ВЕСТН. МОСК. -УН-ТА. СЕР. 12. ПОЛИТИЧЕСКИЕ НАУКИ. 2017. № 6 – С.7-26.
6. Кривоносов А.Д., Лебедева Т.Ю. Искусственный интеллект в системе «общество – медиа – человек». Коммуникации в условиях цифровых изменений . сборник материалов VII Международной научно-практической конференции. Санкт-Петербург, 28-29 ноября 2023 г. / под ред. проф. А.Д. Кривоносова. – Санкт-Петербург.. Изд-во СПбГЭУ, 2023. – С.8-11.
7. Добринская Д.Е. Что такое цифровое общество? / Д.Е. Добринская // Социология науки и технологий. 2021. № 2. URL. <https://cyberleninka.ru/article/n/chto-takoe-tsifrovoe-obschestvo> (дата обращения 01.12.2022).
8. Милтс А.А. Совесть / А.А. Милтс // Этическая мысль. науч.-публицист. чтения. – М.: Политиздат, 1990. – С. 274 –283.
9. Авакьян, С.А. Свобода вероисповедания как конституционноправовой институт / С.А. Авакьян // Вестн. Моск. унта. Сер. 11, Право. – 1999. – № 1. – С. 3-22.
10. Ахметзянова М.П. Проблема экзистенциальной безопасности в «обществе риска» // Актуальные проблемы современной науки, техники и образования. 2016. Т. 2. С. 94–96.
11. Жилин А.Ю., Жилина В.А. Метаморфозы социализации современного человека // Вестн. Челяб. гос. ун-та. 2015. № 19 (374). С. 88–91.
12. Кулич С., де Лемос С., Косаковска-Березецкая Н., Лоренци-Чольди Ф. 2017. Управление множественной идентичностью. влияние на идентификацию, установки, поведение и благополучие. Рубежи психологии, Т. 8. Электронная статья. URL. <https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fpsyg.2017.02258/full> (дата обращения. 15.11.2024).
13. Семёнов Е.Е. К проблеме идентичности в глобальном цифровом мире. На пересечении языков и культур. Актуальные вопросы гуманитарного знания, № 2 (26). 2023. – С.431-432.